**Abstract:** The article examines quantitative and qualitative methods used in the study of educational clusters, with a particular focus on approaches applied to identify clusters and evaluate their performance in the national economy. Quantitative methods include the localization coefficient, input-output balance, shift-share analysis, agglomeration indices, and ellipse-based clustering. In addition, qualitative methods such as expert evaluation and surveys are discussed. The author compares the advantages and limitations of both quantitative and qualitative approaches and substantiates the importance of their integrated application.

**Key words:** educational cluster, quantitative methods, qualitative methods, localization coefficient, shift-share analysis, agglomeration index, expert evaluation, survey.

**Аннотация:** В статье рассматриваются количественные и качественные методы, применяемые для исследования образовательных кластеров, в частности методы, используемые для идентификации кластеров и оценки их эффективности в национальной экономике. К количественным методам относятся коэффициент локализации, межотраслевой баланс, структурные сдвиги, индексы агломерации, а также кластеризация на основе эллипсов. Кроме того, рассматриваются качественные методы, основанные на экспертных оценках и анкетировании. Автор сопоставляет преимущества и ограничения количественных и качественных подходов и обосновывает необходимость их комплексного применения.

**Ключевые слова:** образовательный кластер, количественные методы, качественные методы, коэффициент локализации, структурные сдвиги, индекс агломерации, экспертная оценка, анкетирование.

## KIRISH

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sohasiga yangi innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, sohada yetuk, malakali mutaxassislarni tayyorlash, bandlikni ta'minlash va yakuniy natijada milliy iqtisodiyotda ta'lim xizmatlarining ulushini oshirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ta'lim sohasiga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, xususan, ta'lim tizimida klaster yondashuvini joriy etish mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

Ta'lim klasterlari – bu oliy ta'lim muassasalari, turli darajadagi ta'lim tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish korxonalari hamda davlat boshqaruvi organlarining o'zaro hamkorlik asosida birlashib, sifatli va raqobatbardosh ta'lim xizmatlarini ko'rsatish orqali mehnat bozori talablariga mos yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan innovatsion tizimdir. Bunday klasterlar samaradorligini aniqlash va ularning rivojlanish tendensiyalarini baholashda ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan usullar muhim o'rin tutadi.



Milliy iqtisodiyotda klasterlash jarayonlari samaradorligini o'rganishda ikki asosiy yondashuv – miqdoriy va sifat usullari keng qo'llaniladi. Miqdoriy usullar (lokalizatsiya koeffitsiyenti, tarmoqlararo balans, tarkibiy siljishlar, aglomeratsiya indeksleri, ellips asosidagi klasterlash) aniq statistik ko'rsatkichlar asosida klasterning mavjudligi va uning iqtisodiy ta'sirini belgilash imkonini beradi. Sifat usullari esa (ekspert baholash, so'rovnomalalar) ko'proq subyektiv yondashuvga asoslangan bo'lib, klasterning ichki aloqalari, hamkorlik darajasi va potensialini aniqlashda qo'llaniladi.

Mazkur maqolada ta'lim klasterlarini o'rganishda qo'llaniladigan miqdoriy va sifat usullarining mazmuni, ularning ustunliklari va kamchiliklari, shuningdek, ularni kompleks qo'llashning amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim xizmatlari ekotizimini rivojlantirish, klasterlarning samaradorligini baholash hamda ta'lim siyosatini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotning klasterli salohiyatidan ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim sohasini takomillashtirishda foydalanish xorijiy tajribalar va tadqiqotlardan ma'lum bo'lgan samarali jarayondir. Ta'lim sohasidagi muammolar, jumladan, ta'lim xizmatlari sifati, ta'lim xizmatlari bozorida talab va taklifning nomuvofiqligi, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi hamda mehnat bozorida muammolar milliy iqtisodiyotda ta'lim klasterlari shakllanishining dolzarbligini ko'rsatib bermoqda.

Shunga muvofiq, ta'lim klasterlarining natijaviyligini aniqlash va samaradorligini baholash usullari, mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir. Buning uchun iqtisodchi olimlar tomonidan milliy iqtisodiyotda klasterlarni aniqlash, mintaqalarda klasterli yondashuv, klaster siyosati hamda klasterlashtirishda qo'llaniladigan usullarni tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodchi C. Schmiedeberg klaster siyosatini baholash, D. M. Kurbanova innovatsion klasterlarni shakllantirish, N. To'xlijev va Q. Qurolovlar oliy ta'lim tizimi rivojlanishini miqdoriy va sifat jihatdan baholash, G. Ellison, E. Glaeser, F. Maurel va B. Sedillotlar klasterlarni aniqlashda aglomeratsiya indekslaridan foydalanish, Ziwei Zhao, Zuoquan Zhao va Pei Zhanglar klasterlarni aniqlashda ellips usulidan foydalanish, M. Porter esa klasterlarni tadqiq etishda aralash usuldan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ta'lim klasterlari faoliyati va ularning natijaviyligini aniqlashning miqdoriy va sifat usullarini o'rganish maqsadida qiyosiy-tahliliy, tizimli yondashuv, induktiv va deduktiv tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ta'lim klasterlari samaradorligini tahlil qilish rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning statistik va tahliliy hisobotlari hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib borildi. Milliy ta'lim klasterlari faoliyatining samaradorligini baholashda statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodchi C. Schmiedebergning fikricha<sup>1</sup>, klaster siyosatini baholashda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega. Xususan:

Hisobot shaklidagi usul – ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj va murakkablik darajasi eng past bo'lgan usul hisoblanadi. U har qanday baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. Hisobotlar orqali umumiy ma'lumotlar taqdim etiladi va nazorat vositasi sifatida foydalaniladi.

Keys-tahlillar (Case Studies) – intuitiv tushunish, mohirlik va chuqur tahlil qilish imkoniyati bilan ajralib turadi. Keys-tahlillar klaster rivojlanishining mexanizmlarini aniq ko'rsatadi, ammo natijalarni umumlashtirish qiyin. "Dastur ish berdimi?" degan savolga javob bir ma'noli bo'lmasligi mumkin.

Ekonometrik usullar – klaster siyosati ta'sirini, asosan, klasterdagi alohida ishtirokchilarga miqdoriy jihatdan tekshirish imkonini beradi va natijalar ishonchligini oshiradi. Biroq, bu usul yuqori darajadagi ma'lumot va metodologiya talab qiladi. Musbat va ahamiyatli natijalar odatda dastur boshlanganidan bir necha yil o'tgachgina namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, "yumshoq" omillar va unsurlarga e'tibor berilmaydi.

Tizimli yondashuvlar (Systemic approaches) – alohida ishtirokchilar emas, balki klaster konsepsiyasini hisobga oladi. Mazkur tahlil klaster samaradorligi haqida miqdoriy natijalar beradi, ammo ma'lumot talablari yuqori. Bundan farqli o'laroq, benchmarking orqali eng yaxshi tajribalar va tanqidiy nuqtalar tahlil qilinadi.

Benchmarking tahlili – ma'lum bir tashkilot, klaster yoki tizimning faoliyati va natijalarini boshqa ilg'or tajribalar bilan solishtirish orqali baholash usuli hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, benchmarking – bu "eng yaxshilar bilan taqqoslash" bo'lib, u orqali samaradorlik darajasi aniqlanadi va o'z faoliyatini yaxshilash yo'llari belgilanadi. Bu usul ta'lim klasterlarida sifat, raqobatbardoshlik va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

1 Schmiedeberg C. Evaluation of cluster policy: a methodological overview. Evaluation, 2010, 16(4), pp. 389-412. 404 p.



Xarajatga oid usullar – har qanday baholashda “bu arzdimi?” degan samaradorlik savoliga javob berish uchun qo'llanilishi kerak. Biroq, ma'lumot yetishmovchiligi sababli ishonchli xarajat tahlillarini o'tkazish qiyin. Ular yuqorida ko'rsatilgan miqdoriy usullarga asoslanishi va biron-bir sifat usuli bilan birgalikda qo'llanilishi lozim. Bu yondashuv o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi (1-jadval).

### 1-jadval. Klaster siyosatini baholash usullari<sup>2</sup>

№	Usullar	Afzalliklari	Kamchiliklari
1.	<b>Hisobot shaklidagi usul</b>	Eng oddiy va tezkor; ma'lumotga talab past; nazorat vositasi sifatida ishlatiladi	Faqat umumiy ma'lumot beradi; chuqur tahlil imkoniyati cheklangan
2.	<b>Keys-tahlillar (Case Studies)</b>	Klaster mexanizmlarini chuqur o'rganish; amaliy misollar orqali jarayonni tushuntirish	Natijalarni umumlashtirish qiyin; subyektivlik mavjud
3.	<b>Ekonometrik usullar</b>	Miqdoriy ishonchli natijalar beradi; klaster siyosatining samaradorligini o'lchaydi	Yuqori darajadagi ma'lumot talab etadi; “yumshoq” omillarni hisobga olmaydi; natijalar kechikib namoyon bo'ladi
4.	<b>Tizimli yondashuvlar (Systemic approaches)</b>	Klaster konsepsiyasini to'liq hisobga oladi; umumiy samaradorlikni ko'rsatadi	Ma'lumotga talab juda yuqori; murakkab tahlilni talab qiladi
5.	Benchmarking (benchmarking) tahlili	Har tomonlama taqqoslash imkonini beradi; sifat va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi	To'liq va dolzarb ma'lumotlar talab etadi; moslashtirishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin
6.	<b>Xarajatga oid usullar</b>	Samaradorlikni aniqlash, xarajat va foydani taqqoslash imkonini beradi	Ma'lumot yetishmovchiligi sababli ishonchlilik past;

Mazkur fikrga xulosa qilib aytganda, klaster siyosatini baholashda samarali yondashuv — turli usullarni kombinatsiyalash, ya'ni miqdoriy tahlil orqali ob'yektiv ko'rsatkichlarni olish va sifat usullari orqali klasterning ichki mexanizmlari, hamkorlik darajasi hamda innovatsion rivojlanishini yoritishdir. Bu holat klaster siyosatini har tomonlama baholash va uni yanada takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotda olib borilgan klaster tadqiqotlari tajribalarini o'rganish, klasterlarni diagnostika qilish sifat va miqdoriy usullarning sinteziga asoslanishini ko'rsatib berdi. Klasterlarni miqdoriy tadqiq qilish usullariga quyidagilar kiradi: lokalizatsiya koeffitsiyenti, tarmoqlararo balans, tarkibiy siljishlar usuli, aglomeratsiya indeksleri usuli hamda ellips asosidagi klasterlash usuli. Klasterlarni aniqlashning sifat usullariga esa so'rovnomalar o'tkazish va ekspert baholash kiradi. Shuningdek, yuqoridagi ikki yondashuvni birlashtirgan M. Porterning aralash usuli ham qo'llaniladi.

Lokalizatsiya koeffitsiyenti — milliy va xalqaro ekspertlar tomonidan tez-tez qo'llaniladigan, hisoblash nisbatan oson bo'lgan ko'rsatkichdir. U turli ilmiy tadqiqot vazifalariga qarab mintaqaning ixtisoslashuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Mazkur ko'rsatkich yordamida tarmoqlarning mintaqaviy va milliy darajadagi iqtisodiy xususiyatlari, ya'ni ishchilar soni, sotuv hajmi, yalpi qo'shilgan qiymat kabi ko'rsatkichlar solishtiriladi. Ko'rsatkich qiymati mintaqaning ustun soha ixtisoslashuvini belgilaydi: agar uning qiymati 1 dan katta bo'lsa, ushbu sohaning mazkur mintaqadagi konsentratsiyasi mamlakat bo'yicha o'rtacha darajadan yuqori bo'ladi. Aksincha, agar qiymati 1 dan past bo'lsa, bu sohaning konsentratsiyasi mamlakat miqyosiga nisbatan past ekanini ko'rsatadi. Shunday qilib, koeffitsiyent ma'lum bir mintaqaning soha ixtisoslashuvini aniqlashda muhim ko'rsatkichdir.

Tarmoqlararo balans — ilmiy tadqiqotlarda dolzarb usul bo'lib, tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi jadval shaklida taqdim etiladi. U milliy statistika hisobotining tarkibiy qismi bo'lib, tarmoqlararo tahlil uchun asosiy manba hisoblanadi. Bundan tashqari, tarmoqlararo balans muhim aloqalarni aniqlash, YaIM ko'rsatkichini aniqlashtirish hamda tahliliy va prognozlash masalalarini hal etishda keng qo'llaniladi.

Tarkibiy siljishlar usuli mintaqaviy iqtisodiy o'sishni uchta komponent bilan bog'laydi: milliy iqtisodiyotning o'sishi, mamlakat tarmoqlarining o'sishi va mintaqaviy iqtisodiy o'sishning umumiy harakati. Bu ko'rsatkichlar asosan milliy va xorijiy tadqiqotlarda bandlik darajasi bilan o'lchanadi.

Milliy iqtisodiyotning o'sishi — bandlikning umumiy ortishi hisobiga mintaqadagi muayyan iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ish o'rinlarining qay darajada ko'payganini ko'rsatadi.

Mamlakat tarmog'ining o'sishi — mintaqadagi muayyan soha o'sishi milliy miqyosdagi shu sohaning o'sishiga qanchalik mos kelishini ifodalaydi.

Mintaqaviy iqtisodiy o'sish yoki raqobatbardoshlik samarasi — mintaqadagi iqtisodiy faoliyatning samarali yoki sust rivojlanganini ko'rsatadi. Bu bandlik darajasining mintaqada o'sish sur'ati mamlakat bo'yicha shu soha

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.



o'sish sur'ati bilan taqqoslanganda aniqlanadi. Agar mintaqaviy o'sish sur'ati mamlakatnikidan yuqori bo'lsa, u holda soha yetakchi hisoblanadi; agar past bo'lsa, ortda qoluvchi soha hisoblanadi.

Shunday qilib, aynan mintaqaviy o'sish sur'ati klasterning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida muhim signal beradi. Chunki mamlakatga nisbatan raqobatbardoshligi yuqori bo'lgan faoliyat turlari klasterning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, mintaqaviy yetakchi faoliyat turlari iqtisodiy klaster tarkibini tashkil etuvchi yadro ishtirokchilar bo'ladi.

Mazkur ko'rsatkich nafaqat mintaqada klaster mavjudligini, balki quyidagi bir qator vazifalarni ham hal etishi mumkin. Masalan, turli mintaq va shaharlarda bandlik o'zgarishini baholash, bandlikning o'sishi yoki pasayish manbalarini o'rganish, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish trendlarini baholash, mintaq iqtisodiyoti uchun ustuvor tarmoqlarni aniqlash, turli mintaq iqtisodiyotlarini solishtirish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bundan tashqari, mazkur usuldan bashoratlash vositasi sifatida ham foydalanish mumkin. U orqali milliy iqtisodiy o'sishning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sirini oldindan baholash mumkin.

Mazkur ko'rsatkichning kamchiligi shundaki, u ekstensiv iqtisodiy o'sishning omili bo'lgan mehnat va ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish hajmining kengayishiga asoslanadi. Vaholanki, bugungi kunda global miqyosda miqdoriy o'sish emas, balki mavjud ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirishga asoslangan intensiv iqtisodiy o'sish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish asosiy trend hisoblanadi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun asosiy ko'rsatkich sifatida bandlik darajasi emas, balki intensiv iqtisodiy o'sish omili bo'lgan mehnat unumdorligi — ya'ni har bir bandga to'g'ri keladigan yalpi qo'shilgan qiymatning o'sishi olinishi lozim. Bu orqali o'sish manbalarini hududiy ishlab chiqarish jarayonida faqat mehnat omilining oddiy o'sishi bilan baholashdan uzoqlashish mumkin bo'ladi.

Mintaqaviy iqtisodiy klasterlarni aniqlashning keyingi usuli — klasterning xarakterli belgisi bo'lgan ishtirokchilarning o'zaro yaqinligi va ushbu yaqinlik evaziga yuzaga keladigan samarani ifodalovchi Ellison–Gleyzer<sup>3</sup> va Maurel–Sedillot<sup>4</sup> aglomeratsiya indekslaridir. Tadqiqot qilinayotgan mintaq doirasida ularni hisoblash uchun geografik hududlar haqida ma'lumot zarur bo'lib, bular qatoriga mahalliy rayonlar va shaharlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkich uch bosqichda hisoblanadi. Birinchi bosqichda formula asosida geografik konsentratsiya indeksi aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda esa iqtisodiy faoliyat turining soha konsentratsiyasini ifodalovchi Xerfindal indeksi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu holatda indeks klassik ko'rinishidan farq qiladi, chunki unda korxonalarining hududiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bandlik ulushi hisobga olinadi. Indeks qanchalik yuqori bo'lsa, soha konsentratsiyasi shuncha yuqori bo'ladi. Uchinchida formula asosida aglomeratsiya indeksi hisoblanadi. Ellison–Gleyzer aglomeratsiya indeksi soha konsentratsiyasiga nisbatan ortiqcha geografik konsentratsiyani o'lchashga xizmat qiladi. Shu orqali klasterning mavjudligini tasdiqlovchi aglomeratsiya samarasi aniqlanadi.

Maurel–Sedillot indeksi ham aglomeratsiya samarasi uchun qo'llaniladi, biroq u boshqa uslubda hisoblanadi. Aglomeratsiya indeksleri quyidagicha talqin qilinadi: iqtisodiy faoliyatning ma'lum bir turi uchun yuqori qiymat ortiqcha konsentratsiyani bildiradi. Ya'ni, ushbu faoliyatdagi konsentratsiya soha konsentratsiyasidan yuqori bo'lsa, uni aglomeratsiya deb hisoblash mumkin. Barqaror aglomeratsiya samarasi mavjud bo'lishi uchun indeks qiymati 0,05 dan yuqori bo'lishi talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bandlik, xizmat ko'rsatish va sotuv hajmi haqidagi ma'lumotlarning klaster tadqiqotlari uchun eng mos manba ekanligi haqida xulosa qilish mumkin.

Ellips asosidagi klasterlash esa nisbatan yangi usul bo'lib, yuqoridagi usullarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan.

Mazkur usul ellipsga asoslangan klasterlashni (EAK) taklif etishga qaratilgan bo'lib, u quyidagilarni amalga oshiradi:

- sohaning klasterlanish darajasini o'lchaydi;
- multi-klasterli ketma-ketlikni, ya'ni aglomeratsiyalar soni, joylashuvi va hududiy darajasini samarali aniqlaydi;
- uzluksiz hududda ishlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv ellipslardan to'g'ridan-to'g'ri mahalliy hududni, shuningdek, nuqta ma'lumotlarining klasterlarini ifodalash, miqdorini aniqlash va tahlil qilish uchun foydalanadi. Ellipsga asoslangan yondashuv hududiy ixchamlikni tartibga solish tamoyiliga asoslanadi. Undan barcha ma'lumot nuqtalari guruhga asoslangan eng yaqin qo'shni orqali bir nechta nuqta ketma-ketligiga aylantiriladi va potensial klaster sifatida ko'rib chiqiladigan ketma-ketlikdagi nuqtalar guruhi tavsiflanadi.

Elliptik parametrlar intuitiv ravishda ellips orqali ifodalanadi va uning markazi, maydoni, zichligi, shakli

3 Ellison G., Glaeser E. Geographical Concentration in U.S. Manufacturing Industries: A Dartboard Approach // Journal of Political Economy. 1997. Vol. 105(5). P. 889–927.

4 Maurel F., Sedillot B. A measure of the geographic concentration in french manufacturing industries // Regional Science and Urban Economics. 1999. Vol. 29. P. 575–604.



hamda yo'nalishini o'z ichiga oladi. Klasterlash jarayoni bir qator potensial ellipslar orasidan yuqori zichlikka ega ellipsnlarni aniqlash masalasi sifatida qayta ishlab chiqiladi. Muhim o'zgarishlar (ayniqsa, hududiy jihatdan) klasterlarning chegara nuqtalarini aniqlash uchun kesish mezoni sifatida qo'llaniladi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, mazkur yondashuv tabiiy ravishda shakllanadigan klasterlar sonini aniqlashga imkon beradi va klasterlash jarayonida faqat bitta parametr — kesish qiymatini statistik tarzda belgilash talab etiladi<sup>5</sup>.

Shuni ta'kidlash kerakki, mintaqadagi klasterlarni aniqlash uchun faqat miqdoriy tahlil usullaridan foydalanish yetarli emas. Ko'rinib turibdiki, sifat tahlili potensial va paydo bo'layotgan klasterlarni aniqlash uchun juda muhim, ayniqsa mintaqada rivojlanayotgan iqtisodiy faoliyatni to'liq hisoblash hali imkoni bo'lmaganda, chunki ular hali yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Bunday tahlil yangi klasterlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kelajakdagi iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini baholash uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Shu bois sifatli tadqiqot usullarini qo'llashda ushbu omillar hisobga olinishi lozim.

Klasterlarni aniqlashning sifat usullariga ekspert baholash va so'rovnomalar o'tkazish kiradi. Ekspert baholash usulida mutaxassislarining bilim va tajribasiga asoslangan intuitiv xulosalar olinadi. Uning mohiyati ekspertlardan klasterlar bo'yicha zarur ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish va mintaqada ma'lum klaster mavjudligi haqida xulosa chiqarishdan iborat. Mazkur usulni qo'llashda 10 kishidan kam bo'lmagan jamoaviy yoki individual ekspertlar guruhidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Universal sifat tadqiqot usullaridan yana biri so'rovnomadir. Bu usul nafaqat mintaqada klaster mavjudligini aniqlashga, balki klasterning muhim belgilaridan biri sifatida raqobat va hamkorlik institutlarining rivojlanish darajasini baholashga ham imkon beradi. So'rovnomani masofaviy yoki jonli suhbat orqali o'tkazish mumkin. Buning uchun avvalo klasterlarga oid savollarni o'z ichiga olgan batafsil anketalar tuziladi. Savollar shunday muvofiqlashtirilishi kerakki, ularga berilgan javoblarni umumlashtirib, kerakli ma'lumotlar to'plami shakllantirilsin.

Ma'lumki, so'rovnomalar rasmiy yoki norasmiy bo'lishi mumkin. Rasmiy so'rovnomalarda tadqiqotchi tomonidan avvaldan ishlab chiqilgan savol va javob variantlari taklif qilinadi. Norasmiy so'rovnomalarda esa tayyor javob variantlari bo'lmaydi, respondentlar ularga o'zlari mustaqil javob shakllantiradi. Ushbu tadqiqotda rasmiylashtirilgan anketalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

M. Porterning aralash usulida birinchi bosqichda soha turlarining geografik taqsimoti qo'llanilib, geografik jihatdan to'plangan "harakatdagi" tarmoqlar tegishli hududlarda barqaror joylashgan "harakatsiz" tarmoqlardan ajratib olinadi. Bunda sohadagi bandlik haqidagi ma'lumotlar asos qilib olinadi. Harakatdagi tarmoqlar mintaqalar va mamlakatlar bo'ylab raqobatlashadi, turli raqobatchilar turli sharoitlarda faoliyat yuritishi kerak bo'ladi. Harakatsiz tarmoqlar esa asosan o'z mintaqasi ehtiyojlarini qondirish darajasida ishlaydi, shu bois mintaqaviy raqobatchilar bir xil sharoitlarda faoliyat yuritadi<sup>6</sup>.

Metodologiyaning ikkinchi bosqichi — tarmoqlararo aloqalar haqidagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, lokalizatsiya koeffitsiyentlari asosida harakatdagi tarmoqlarni klasterlarga guruhlashdan iborat. Bunday tartibni qo'llash harakatdagi klasterlarning izolyatsiyasiga olib keladi, ularning har biri bir qator alohida tarmoqlarni o'z ichiga oladi (2-jadval).

2-jadval. Milliy iqtisodiyotda klasterlarni aniqlash usullari<sup>7</sup>

No	Usullar	Afzalliklari	Kamchiliklari
<b>Miqdoriy usullar</b>			
1.	Lokalizatsiya koeffitsiyenti	Hisoblashning osonligi; ma'lumotlarning mavjudligi	Klasterlararo o'zaro ta'sirni hisobga olmaydi; rivojlanish dinamikasini inobatga olmaydi
2.	Tarmoqlararo balans	Tarmoqlar o'rtasida muhim aloqalarni ko'rsatadi; YalMni aniqlashga yordam beradi	Maxsus hisob-kitoblarni talab qiladi; klaster rivojlanishini inobatga olmaydi
3.	Tuzilmaviy siljishlar	Ma'lumotlar mavjud; klaster o'zaro ta'sirini aks ettiradi; rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi	Natijalar vaqt davriga sezgir; klaster ishtirokchilarining rolini ochib bermaydi
4.	Aglomeratsiya indeklslari	Hududiy joylashuv va klaster o'zaro ta'sirini ko'rsatadi; ma'lumotlar mavjud	Hisoblash qiyin; ishtirokchilar rolini ochib bermaydi; potensial klasterlarni aniqlash imkoniyati cheklangan

5 Ziwei Zhao, Zuoquan Zhao & Pei Zhang. A new method for identifying industrial clustering using the standard deviational ellipse. Scientific Reports | (2023) 13:578 | <https://doi.org/10.1038/s41598-023-27655-8>.

6 Портер, М., Кетелс, К. Конкурентоспособность на распутье: направления развития российской экономики / М. Портер, К. Кетелс. — Москва: Центр стратегических разработок, 2007. — 114 с.

7 Muallif tomonidan tuzilgan.



Sifat usullari			
5.	So'rovnoma o'tkazish	Olingan ma'lumotlar ishonchli va dolzarb; klasterning to'liq tavsifini yaratadi	Juda xarajatli; subyektivlik yuqori; katta hajmdagi respondentlarni talab qiladi
6.	Ekspert baholash	Oddiy; arzon; ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan muhim ma'lumot beradi; potensial klasterni ko'rsatadi	Subyektivlik yuqori; umumlashtirish imkoniyati past; tizimlashtirish imkoniyati cheklangan
Aralash usul			
7.	M.Porter usuli	Arzon; klaster ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ko'rsatadi	Mehnattalab; ma'lumotlarni olish qiyin

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Klasterlarni tadqiq qilishda qo'llaniladigan miqdoriy, sifat va aralash usullar har biri o'ziga xos afzallik va cheklolarga ega. Miqdoriy usullar (lokalizatsiya koeffitsiyenti, tarmoqlararo balans, tarkibiy siljishlar, aglomeratsiya indeksleri) aniq statistik ko'rsatkichlarga asoslanib, klasterlarning iqtisodiy ta'siri va mintaqaviy xususiyatlarini o'rganishda samarali hisoblanadi. Biroq ular klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni va rivojlanish dinamikasini to'liq ochib bera olmaydi. Sifat usullari (so'rovnomalar, ekspert baholash) esa klasterning ichki jarayonlari, hamkorlik darajasi va potensialini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi, lekin natijalari sub'yektiv bo'lishi va katta xarajat talab qilishi mumkin. Aralash yondashuv, xususan M. Porter usuli, ikki yo'nalishni uyg'unlashtirib, klasterlarning rivojlanishini kompleks baholash imkonini beradi.

Demak, samarali natijaga erishish uchun klasterlarni baholashda miqdoriy va sifat usullarini birgalikda qo'llash muhimdir. Bu nafaqat klasterlarning iqtisodiy samaradorligini, balki ularning innovatsion salohiyatini, ichki hamkorlik mexanizmlarini va hududiy rivojlanishdagi rolini ham to'liq ochib berishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Schmiedeberg C. Evaluation of cluster policy: a methodological overview. *Evaluation*, 2010, 16(4), pp. 389-412. 404 p.
- Д.М.Курбанова. Проблемы формирования инновационных кластеров в Республике Узбекистан. *Экономика и финансы*. №6, 2010. 66-69 стр.
- Н.Тўхлиев., Қ.Қуролов. Ўзбекистонда олий таълим тизими ривожланиши миқдор ва сифат баҳолаш / Монография/ "Ilm-Ziyo-Zakovat" нашриёти, Тошкент – 2018. 128 б.
- Ellison G., Glaeser E. Geographical Concentration in U.S. Manufacturing Industries: A Dartboard Approach // *Journal of Political Economy*. 1997. Vol. 105(5). P. 889–927.
- Maurel F., Sedillot B. A measure of the geographic concentration in french manufacturing industries // *Regional Science and Urban Economics*. 1999. Vol. 29. P. 575–604.
- Ziwei Zhao, Zuoquan Zhao & Pei Zhang. A new method for identifying industrial clustering using the standard deviational ellipse. *Scientific Reports* | (2023) 13:578 | <https://doi.org/10.1038/s41598-023-27655-8>.
- Портер, М., Кетелс, К. Конкурентоспособность на распутье: направления развития российской экономики / М. Портер, К. Кетелс. — Москва: Центр стратегических разработок, 2007. — 114 с.
- Портер, М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран / М. Портер. — Москва: Альпина Паблишер, 2024. — 947 с. — ISBN 978-5-9614-4835-1.
- <https://clustercollaboration.eu/cluster-definitions>
- <https://www.educationcluster.net/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>